

O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISH DARAJASIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Yusupova Zarifaxon Shahobiddinovna

Farg'ona viloyati Uchko'priq tumani

5-son umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'sir etuvchi psixologik omillar, ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati hamda o'quv faoliyati samaradorligini oshirishning psixologik yo'llari yoritilgan. Shuningdek, motivatsiya, diqqat, xotira, tafakkur va emotsional holatlarning o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'zlashtirish, psixologik omillar, motivatsiya, diqqat, xotira, tafakkur, emotsional holat, o'quv faoliyati, ta'lim samaradorligi, o'quvchi shaxsi.

KIRISH

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilarning bilimlarni qay darajada o'zlashtira olishiga bog'liq. O'zlashtirish darajasi nafaqat ta'lim sifati, balki o'quvchining individual psixologik xususiyatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu sababli o'quv faoliyatiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri motivatsiyadir. Motivatsiya o'quvchini bilim olishga undovchi ichki va tashqi sabablar yig'indisi bo'lib, o'quv faoliyatining samaradorligini belgilaydi. Bilim olishga qiziqishi yuqori bo'lgan o'quvchilar odatda yaxshi natijalarga erishadilar.

Diqqat ham ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Diqqatning barqarorligi va hajmi o'quvchining dars materiallarini qabul qilishi hamda eslab qolishiga yordam beradi. Diqqatning sustligi esa o'zlashtirish darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Xotira o'quv materiallarini saqlash va qayta tiklash imkonini beruvchi muhim psixik jarayondir. O'quvchining xotira xususiyatlari qanchalik rivojlangan bo'lsa, bilimlarni o'zlashtirish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Tafakkur esa bilimlarni tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlangan o‘quvchilar murakkab vazifalarni samarali hal qila oladilar. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni tafakkurning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Emotsional holat ham o‘zlashtirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Ijobiy ruhiy muhit va emotsional barqarorlik o‘quv faoliyatini faollashtiradi, stress va xavotir esa bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga salbiy ta‘sir qiladi. Oila va maktab muhiti ham o‘quvchilarning ta‘limdagi muvaffaqiyatida muhim omil hisoblanadi. Ota-onalar va pedagoglarning qo‘llab-quvvatlashi, rag‘batlantirishi hamda sog‘lom psixologik muhit yaratishi o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o‘zlariga o‘zlari baho beradilar. O‘quvchining o‘ziga-o‘zi beradigan bahosi, asosan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qituvchining beradigan bahosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga bog‘liq. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘z-o‘ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo‘lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo‘lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta‘sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Bolada vujudga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni o‘qituvchi asosan o‘zlashtirish bilan belgilaydi. Bunda bolalar qariyb bir xil baholanadi: a‘lochi - demak u yaxshi o‘quvchi, ikkichi - yomon o‘quvchi. Bunday o‘quvchiga qo‘llaniladigan choralar ham bir xil. Bolaning ota-onasi maktabga chaqirilib, o‘g‘li (yoki qizi) bilan shug‘ullanmayotgani, yomon tarbiyalanayotganligi haqida ma‘lum qilinadi. Yoki o‘qituvchi oqibati haqida o‘ylamasdan o‘quvchini butun sinf oldida baqirib haqoratlaydi, izza qiladi. Ko‘pchilik tajribali

o'qituvchilar o'quvchilar o'zlashtirmasligini uning dangasaligi, tarbiyasizligi, ishyoqmasligi bilan bog'laydilar. Ko'p kasal bo'luvchi zaif bolalar organizmi darmonsizligi tufayli ishga va o'qishga qobiliyatlari kamayadi. Bunday bolalar bilan individual shug'ullanmasa, tez orada ular o'zlashtirmovchi o'quvchilar qatoriga kiradilar.

Biron narsadan qattiq qo'rqqan bolalarda asabiylashish alomatlari -duduqlanish, enurez va boshqalar paydo bo'ladi. Bunday bolalar bilan ham o'qituvchi maxsus shug'ullanmasa, o'zlashtirmovchi o'quvchilarning soni ortishi mumkin. O'quvchilar o'zlashtirmasligining sabablaridan biri bolaning psixik taraqqiyotdan vaqtincha orqada qolishi bilan ko'pincha bog'liq. Turli mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'zlashtirmaslik 50 % psixik taraqqiyotda orqada qolish bilan, 24% xulq-atvorning buzilishi, 4% aqliy yetishmaslik va nutqning rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Psixik taraqqiyotda vaqtincha orqada qolish bolada turli sabablarga ko'ra vujudga kelishi mumkin. Ko'pincha bu bolaning ona qornida va tug'ilishi vaqtidagi o'zgarishlar (patologiya), irsiyat, ilk bolalik davrida bolaning jarohatlanishi va og'ir kasalliklarga chalinishi sabab bo'lishi mumkin. Bunday omillarning markaziy nerv sistemasiga noqulay ta'sir etishi natijasida eng nozik insoniy funksiyalarning taraqqiyoti to'xtaydi. Shu bilan birga bola tarbiyalanayotgan ijtimoiy muhitning roli ham muhim. Bolaga onaning erkalashlari yetishmasligi, unga yetarlicha e'tibor bermaslik, unga iliq munosabatda bo'lmaslik, unga yaxshi qaramaslik, vaqt ajratmaslik kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, bu omillar shunchalik ahamiyatlidir. Xuddi shu sabablarga ko'ra mehribonlik uylarida, kunu tun ishlaydigan bog'cha va yaslilarda tarbiyalanayotgan bolalarda psixik taraqqiyotda orqada qolish uchraydi. Ko'pincha o'qituvchilar o'zlashtirmovchi o'quvchi bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazadilar. Bunda ular darsda o'tilgan materiallarni qaytarish, bir mashqni bir necha marta yozdirish bilan chegaralanadilar. Bunda bola nimada xato qilayotganiga e'tibor berilmaydi. Ba'zan o'qituvchilar sababini tushunmasdan o'zlashtirmovchi o'quvchilarni "qobiliyatsizlar", "aqli yetishmaydiganlar" safiga kiritib qo'yadilar. Tez orada o'qituvchilar

o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarga e’tibor bermay qo‘yadilar, sinfda qolmasliklari uchun “uch” baho qo‘yadilar. Keyinchalik bunday o‘quvchilarda maktabga nisbatan salbiy munosabat rivojlanadi, shaxs xarakteri patologik shakllanadi. Psixik taraqqiyotda vaqtincha orqada qoladigan bolalarga individual ishlashning mahsuldor usullari qo‘llanilsa, umumta’lim maktabida bema’lol o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar qatorida bo‘ladilar.

P.P.Blonskiy “Qiyin o‘quvchilar” asarida psixik va jismoniy tayyorgarlik turli xususiyatlarini birikuvi xarakteriga bog‘liq ravishda o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarni quyidagi tiplarga ajratgan. P.P.Blonskiy o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarni tavsiflaganda birinchi o‘rinda jismoniy sog‘likka katta e’tibor beradi. Muallif ishlarida psixologik xususiyatlar yetarlicha yoritilmagan. P.P.Blonskiy o‘zlashtirmaslikka olib keladigan asosiy sababni ajratib ko‘rsatgan. Birinchidan, o‘quvchi sog‘lig‘iga bog‘liq quyi ishchanlik qobiliyati, ikkinchidan o‘zini faoliyatini to‘g‘ri tashkil eta olmaslik, “ishlay olmaslik”, uchinchidan, o‘qishga qiziqishning yo‘qligi, to‘rtinchidan, o‘quvchining bo‘sh rivojlanganligi.

P.P.Blonskiy o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarni quyidagi tiplarga ajratadi: I tip o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning taxminan 50% jismonan bo‘sh va aqliy rivojlanmagan o‘quvchilar kiradi. II tip o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning taxminan 25% jismonan kuchsiz, ko‘p dars qoldiradigan, tez charchaydigan o‘quvchi, aqliy rivojlanishi yetarli darajada. III tip o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning taxminan 10% jismonan normal, lekin aqlan rivojlanmagan o‘quvchilar. IV tip o‘zlashtirmovchi o‘quvchilar taxminan 15% oilaviy sharoitga ko‘ra maktabdan ajralib qolgan o‘quvchilar. Shunday qilib, o‘quvchilar tiplari klassifikatsiyasini asosiy ikki ichki sababga ko‘ra jismoniy bo‘sh va aqliy rivojlanmaganlik, uchinchidan maktabdan tashqaridagi sabab – sharoit maktabdan tashqari qiziqishlar. P.P.Blonskiy ishlari maktab o‘zlashtirmasligi muammosini o‘rganishda muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. O‘zlashtirmaslik sabablarini tahlil qilish, uni yo‘qotish va oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish muallif ishidagi yutuqlardan biri bo‘lgan.

L.S.Slavinaning “O‘zlashtirmovchi va tartibbuzar o‘quvchilarga individual yondashuv” asarida o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarni turli guruhlariga bo‘lgan. Muallif bunday tipologiyani ishlab chiqishda o‘quvchi shaxsining muhim xususiyatlariga e‘tibor beradi:

- o‘qishga nisbatan noto‘g‘ri munosabat shakllangan o‘quvchilar;
- materiallarni qiyinchilik bilan o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar;
- o‘quv ishida malaka va usullari shakllanmagan o‘quvchilar;
- mehnat qila olmaydigan o‘quvchilar;
- bilimga va o‘qishga malaka va usullari shakllanmagan o‘quvchilar.

Bunda turli guruhdagi o‘quvchilar shaxsining har xil tomonlari orasidagi munosabat to‘g‘risidagi savol ochiq qoladi. O‘zlashtirmovchi o‘quvchilar uchun eng avvalo o‘zini kuchsiz boshqarish, o‘z psixik jarayonlari (diqqati, xotirasini) boshqara olmaslik, o‘quv ishining oqilona usullari shakllanmaganligi, o‘quv masalalarini yechishda o‘ylashni istamaslik, bilimlarni shartli o‘zlashtirish xos. Bunday o‘quvchilar aqliy ishdan qochishga intilib, faol fikrlash zaruratidan ularni xalos qiladigan har xil aylanma yo‘llarni izlaydilar.

O‘zlashtirmovchi o‘quvchilar aqliy taraqqiyot darajasining sezilarli pasayishi doimiy intellektual zo‘riqmaslik, bo‘sh o‘zini-o‘zi boshqarish natijasi bo‘lishi mumkin. N.A.Menchinskaya o‘tkazgan tadqiqotlaridan ma‘lum bo‘lishicha, o‘zlashtirmovchi o‘quvchilar diqqati va xotirasida quyi ko‘rsatkichlar olinishi bu psixik jarayonlarida patologik o‘zgarishlarning natijasi emas, balki to‘g‘ri ishlash odatlarining mavjud emasligi bilan bog‘liqdir. N.A.Menchinskaya o‘zlashtirmovchi o‘quvchilar tipologiyasini ishlab chiqishda birinchidan tafakkur faoliyati xususiyatlari, ikkinchidan, shaxsning yo‘nalishiga e‘tibor berdi. Muallif o‘quv faoliyatini tashkil qila olish ko‘nikmasini barcha o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarga xos bo‘lgani uchun tiplarga ajratish mezoni sifatida qaraydi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o‘qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada o‘zi qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xususiyatining

shakllanishi asosan kattalarga bog'liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq xususiyatli bo'lsa, unda asta- sekinlik bilan bo'ysunuvchanlik, tobelik xususiyati mustahkamlana boradi. Biroq bolani vaqtli mustaqillikka undash, unda ba'zi salbiy xislatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin, chunki hayotiy tajribalari, asosan, kimlargadir taqlid qilgan holda o'zlashtiradi. Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek, shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biror bir mas'ul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin. Ana shu his bolada mustaqil bo'lishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi. Baho o'quvchi o'zlashtirishiga ta'sir qiladimi?

Birinchi sinf o'quvchisining har qanday intilishini qadrlash lozim. Dabdurustdan yomon bahosi bilan maktabga endigina qadam qo'ygan bolaning orzularini bir zumda yo'qqa chiqarishga hech bir o'qituvchining haqqi yo'q. Shuning uchun har bir bolaga individual yondashib, o'qish istagidagi barcha harakatlarini rag'batlantirish zarur. Bu borada joriy qilingan ball sistemasida baholash eng oqilona yo'ldir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi motivatsiya, diqqat, xotira, tafakkur va emotsional holat kabi psixologik omillar bilan uzviy bog'liq. Mazkur omillarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash orqali ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent 1997 y.
2. Goliza M.V. "Возрастная и педагогическая психология"
3. Gafarov A.E, "Pedagogik amaliyot". Toshkent 2002 y.
4. Gurova A. "Диагностика психического развития детей".
5. ZIYO NET